

"SEREBRAL FALAJGA QARSHI KURASH: REABILITATSIYA VA LOGOPEDIYA USULLARI"

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

Alfraganus Nodavlat Universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Utbasarova Umida

Alfraganus Nodavlat Universiteti pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar serebral falaji (BSF) tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari, diagnostikasi hamda davolash va reabilitatsiya usullari yoritiladi. Xususan, logopedik muammolar va ularni bartaraf etish usullari ilmiy asoslangan holda ko'rib chiqiladi. Zamonaviy davolash usullari, innovatsion texnologiyalar va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Bolalar serebral falaji, logopediya, nutq buzilishlari, fizioterapiya, neyroreabilitatsiya, davolash usullari, innovatsion yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие детского церебрального паралича (ДЦП), его причины, диагностика, а также методы лечения и реабилитации. В частности, на научной основе рассматриваются логопедические проблемы и методы их устранения. Также освещаются современные методы лечения, инновационные технологии и важность психологической поддержки.

Ключевые слова: Детский церебральный паралич, логопедия, нарушения речи, физиотерапия, нейрореабилитация, методы лечения, инновационные подходы.

Abstract: This article discusses the concept of cerebral palsy (CP) in children, its causes, diagnosis, and methods of treatment and rehabilitation. In particular, speech therapy problems and methods for their elimination are considered on a scientific basis. Modern treatment methods, innovative technologies, and the importance of psychological support are also highlighted.

Keywords: Cerebral palsy, speech therapy, speech disorders, physical therapy, neurorehabilitation, treatment methods, innovative approaches.

Kirish

Ma'lumki, serebral falaj – markaziy asab tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nevrologik kasallik bo'lib, u motorik funktsiyalarning buzilishi va ko'pincha boshqa jismoniy hamda intellektual muammolarni keltirib chiqaradi.

Bolalar serebral falaji (BSF) og'ir nevrologik kasalliklar guruhiga kiradi va uning asoratlari o'smirlik davrida ham ko'zga tashlanishi mumkin.

Bunday kasallikda bolaning harakat faoliyatiga, miyasiga, nutq rivojlanishiga va psixologik holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar serebral falaji (BSF) – markaziy asab tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab patologiya bo'lib, u bola harakatlari, muvozanati va nutq faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu kasallik chaqaloqlik davrida paydo bo'lib, bolalarning psixomotor rivojlanishida turli darajadagi buzilishlarga sabab bo'ladi. BSF nafaqat jismoniy harakatlarga, balki bolaning nutq rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli logopedik yondashuv kasallikni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi.

Bolalar serebral falajining sabablari:

BSF sabablari tug'ilishdan oldin, tug'ilish jarayonida va tug'ilgandan keyin sodir bo'lishi mumkin.

Asosiy sabablar quyidagilardan iborat: prenatal omillar (homiladorlik davrida yuzaga keladigan muammolar): homiladorlik toksikozlari, ona organizmidagi infeksiyalar, homilaning gipoksiyasi.

Perinatal omillar (tug'ruq jarayoni bilan bog'liq sabablar): tug'ruqning og'ir kechishi, asfiksiya, erta tug'ruq, tug'ruq jarayonida bolaning miyasiga yetarlicha kislород bormasligi.

Postnatal omillar (tug'ilgandan keyingi sabablari): infeksiyalar, bosh miya shikastlanishi, tug'ruqdan keyingi gipoksiya.

BSF ni uchta asosiy turga bo'lish mumkin:

Spastik serebral falaj – bu shaklda bola mushaklarida kuchli spazmlar, ba'zan esa gipotonik holat bo'lishi mumkin.

Atetoid serebral falaj – atetoid holatlarda bolaning harakatlari ba'zan noan'anaviy va kutilmagan tarzda bo'ladi.

Ataksik serebral falaj – bu turda bolaning muvozanati buziladi, harakatlarini to'g'ri bajarish qiyinlashadi.

BSF va nutq rivojlanishi

BSF ning asoratlari nutq rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqning rivojlanishi bola motoriqaga bog'liq ravishda, qiyinlashadi va ko'plab asoratlarni keltirib chiqaradi.

Ularning orasida dizartriya (nutq apparatining faoliyatsizligi), dizlaliya (tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish) va alaliya (umuman nutqning rivojlanmasligi) kabi holatlar mavjud.

Nutqni rivojlantirish jarayonida bola salbiy omillarni engib o'tishi kerak, bu esa maxsus logopedik yondashuvlarni talab qiladi.

Logopedik davolashda muhim metodlardan biri bola mushaklarining tonusini yaxshilash, muvozanatni tiklash va nutq apparatini yaxshilashga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga oladi.

Har bir muammo uchun individual yondashuv zarur.

BSF va nutq buzilishlari:

BSF bilan kasallangan bolalarda nutq buzilishlari keng tarqalgan bo‘lib, quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

Dizartriya – nutq apparatining mushaklari zaifligi sababli tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish.

Dislaliya – fonetik buzilishlar, tovushlarni o‘zgartirib talaffuz qilish yoki yo‘qotish.

Alaliya – bolada umuman nutq rivojlanmasligi yoki juda sust rivojlanishi.

Duduqlalanish – so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda qiyinchiliklar.

Diagnostika:

BSF diagnostikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Nevrologik tekshiruv – bola r reflekslari, mushak tonusi va harakatlari tahlil qilinadi.

Logopedik baholash – nutq rivojlanishi va talaffuz qobiliyati o‘rganiladi.

Instrumental tekshiruvlar – miya MRT (magnit-rezonans tomografiya), elektroensefalografiya (EEG) yordamida miya faoliyati tekshiriladi.

Bartaraf etish va davolash usullari:

BSFni to‘liq davolash mushkul, ammo turli terapiya usullari yordamida bola hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Logopedik terapiya

Artikulyatsion gimnastika – til, lab va yonoq mushaklarini mustahkamlash.

Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish mashqlari – fonetik va fonologik mashg‘ulotlar.

Breyn-storm metodikasi – nutqni rivojlantirish uchun interaktiv o‘yinlar.

Dori vositalari va neyroreabilitatsiya Neyroprotektorlar (miya faoliyatini yaxshilashga yordam beradi).

Mushak spazmlarini kamaytiruvchi dori vositalari (botulinoterapiya).

Innovatsion yondashuvlar

Kompyuter texnologiyalari asosida logopedik terapiya – maxsus dasturlar yordamida nutqni rivojlantirish.

Neyrofeedback – miyadagi bioelekt rik signallarni boshqarish orqali bolani reabilitatsiya qilish.

Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash:

BSF bilan og‘rigan bolalar uchun psixologik yordam juda muhim.

Bolaning oilasi va jamiyat bilan to‘g‘ri integratsiyasi uni ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Maxsus ta’lim dasturlari, logopedik markazlar va psixoterapeutik mashg‘ulotlar bolaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa: Bolalar serebral falaji murakkab kasallik bo‘lib, uning logopedik jihatlari maxsus yondashuvni talab qiladi. Nutq buzilishlarini bartaraf etishda logopedik terapiya, fizioterapiya va zamonaviy reabilitatsiya usullari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqtida tashxis qo‘yish va to‘g‘ri reabilitatsiya choralari ko‘rilsa, bola hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Volkov, G. N. "Detskiy tserebralnyiy paralich i ego lechenie" – Moskva, 2018.
- Arxipova, I. A. "Logopediya: diagnostika i korrektsiya" – Sankt-Peterburg, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. "Bolalar serebral falaji: tashxis va davolash bo‘yicha qo‘llanma" – Toshkent, 2022.
3. Xalqaro neyroreabilitatsiya markazlari tadqiqotlari. 4."Reabilitatsiya usullari va zamonaviy texnologiyalar" – 2023.
4. Nuralieva, L. M. "Serebral falajli bolalar uchun logopedik yordam" – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
5. Ilyina, O. A., et al. "Innovatsion texnologiyalar va serebral falajni davolash" – Sankt-Peterburg: Nevrotex, 2019.
6. Miller, M. F., & Taylor, J. R. "Cerebral Palsy: Current Perspectives on Diagnosis and Treatment" – New York: Springer, 2017.
7. Shodiev, A. T. "Bolalar serebral falajini davolashda fizioterapiyaning o‘rnii" – Toshkent: Navoiy nashriyoti, 2020.
8. O‘zbekiston Logopedik Markazi. "BSF va nutq rivojlanishi: metodlar va davolash" – Toshkent, 2022.